

FARIDIDDIN ATTORNING “BULBULNOMA” ASARI POETIKASI

Surayyo Shodiyeva

Turon universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi (v.b) dotsenti, f.f.f.d

Egamnazarova Shahina

Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. *Sharq adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri bo'lgan Farididdin Attor ijodi insoniyat tafakkurining eng yuksak cho'qqilaridan birini egallagan. Uning “Mantiq ut-tayr”, “Tazkirat ul-avliyo”, “Asrornoma”, “Musibatnoma” va “Bulbulnoma” kabi asarlari mavjud. Ushbu maqolada shoir qalamiga mansub “Bulbulnoma” asarining g'oyaviy mazmuni obrazlar tahlili orqali yoritib berilgan. Asar mazmunida Gul va Bulbul sevgisi orqali ilohiy ishq yoritilgan, shu bilan birga, asarda bir qancha qiziqarli hikoyatlar Bulbul va turli obrazlar tilidan so'zlab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Bulbulnoma, Farididdin Attor, Bulbul, Sulaymon, Lochin, Sabo, Gul, Mushuk, Sichqon.*

Annotation. *The work of Fariddin Attor, one of the invaluable masterpieces of Eastern literature, occupies one of the highest peaks of human thought. There are examples of his creation, such as “Mantiq ut-tayr”, “Tazkirat ul-avliyo”, “Asrornoma”, “Musibatnoma” and “Bulbulnoma”. In this article, the ideological content of Attor's “Bulbulnoma” is covered by Image Analysis. The work illuminates divine love through the love of the Rose and the Nightingale, and the interesting stories that are evident in the work are told from the perspective of the Nightingale.*

Keywords: *Bulbulnoma, Farididdin Attar, Bulbul, Sulaymon, Falcon, Sabo, Flower, Cat, Mouse.*

Kirish.

Dunyo adabiyotshunosligida uzoq davrlardan buyon adabiy manbalar butun insoniyat tamaddunning boy merosi ekanligi tobora o'z isbotini topmoqda, o'zbek adabiyoti namoyandalari asarlarini birlamchi manbalar orqali o'rganish, ularni matnshunoslikning so'nggi yutuqlari orqali baholash dolzarb muammolardandir. Chunki vatanimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan bugungi kunda biz uchun tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega.

Xususan, “Gul va Bulbul” turkumidagi asarlar yuzasidan ko'plab olimlar samarali izlanishlar olib borgan, ulardan biri Olim Sharafiddinov bo'lib, olimning 1945-yilda tuzilgan “O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi”ga Salohiyning “Gul va Bulbul” dostonidan ba'zi qismlar kiritilgan

hamda aynan ushbu parchalar 1959-yilda tuzilgan to'rt tomlik "O'zbek adabiyoti" to'plamining uchinchi tomida ham qisqartirilgan holda keltirilgan [2;38].

Ma'lumot o'rnida shuni aytish mumkinki, VII asrgacha bo'lgan davrda sharq adabiyotida o'zaro ta'sir va adabiy aloqalar keyingi davrlarga nisbatan kam bo'lgan. Shu e'tibordan turk, fors, arab adabiyotida keskin farqlar mavjud bo'lgan. Ayni shu davrda qushlar bilan bog'liq obrazlar paydo bo'lib, turli ko'rinishda asta- sekinlik bilan rivojlana borgan [7;28].

Sharq adabiyoti haqida gapirar ekanmiz xalq og'zaki ijodi hamda ma'lum bir shaxs qalamiga mansub asarlar qiymati davr jihatidan qimmatlidir. Majoziy mazmunda yozilgan asarlar sharq adabiyotining mavqeyini belgilab beruvchi muhim manbalar hisoblanadi. Jumladan, Abu Ali ibn Sinoning "Risalat ut-tayr", Abu Hamid Muhammad G'azzolining "Risalat ut-tayr", Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" hamda "Bulbulnoma", Alisher Navoiyning esa "Lison ut-tayr" kabi asarlari sharq-u g'arb adabiyotida ham o'z o'rniga va qadr qimmatiga ega bo'lib, o'zidan keyingi bir qancha yangi ijod namunolari yaratilishiga asos bo'ladigan klassik asarlar sifatida baholab kelinadi [7;11]. Fariduddin Attordan boshlangan adabiy an'ana hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda. O'sha davrlardan buyon Gul va Bulbul munosabatlari yoritilgan asarlar ko'plab yaratilgan.

Attor o'zining "Bulbulnoma"si bilan o'ziga xos adabiy an'anaga asos soldi. Ungacha badiiy adabiyotda Gul va Bulbul munosabatlari borasida ma'lum bir sujet asosida asar yoritilmagan. Arab, Eron, Turk va Yevropa adabiyotining "Gul va Bulbul" mavzusida yaratilgan asarlari ko'zdan kechirilganda eng qadimgi "Gul va Bulbul" hikoyasi F.Attorning "Bulbulnoma" asari ekanligi ma'lum bo'ldi. Ushbu asar "Gul va Bulbul" asarlariga yangicha ruh bag'ishlagan. Unda Bulbul oshiq inson ruhining ilohiy muhabbatga talpinish ramzi bo'lsa, Gul esa ma'shuqa, ilohiy go'zallik (Alloh) timsoli bo'lib shakllangan. Asarda tasvirlanishicha, Bulbul iztiroblari haqiqatni topish yo'lida chekilgan ruhiy azob va muhabbat sinovidir. Shu ikki obraz orqali ishqning bayon etilishi asardagi badiiy g'oyani amalga oshirgan va undagi istioraviylikni kuchaytirgan. Asar yuzasidan fikr yuritishda yuzaki qarab bo'lmaydi, undagi chuqur ma'noni anglatuvchi ma'nilar juda ko'p. Shu bilan birga, ilohiy ishqni quvvatlantiruvchi uni takomiliga yetkazuvchi vosita bu shariat ilmlari ekanligi ham bir necha o'rinda yoritilib o'tilgan.

Shoirning "Bulbulnoma"si mazmun jihatdan barkamol bo'libgina qolmay, chuqur ilmiy dalillarga tayanib yozilgani bilan alohida e'tiborga loyiqdir. Bu jihatdan asarning yaratilishida Qur'on oyatlari va hadisi sharifga murojatida namoyon bo'ladi. Ijodkor o'z davrida adabiy jarayonning novatori sifatida adabiyotga yangi ruh, yangi ohang, yangi yo'nalish olib kirdi. Avval mavjud bo'lgan adabiy an'analarni turli obraz va personajlar bilan boyitdi. Ta'kidlanganidek, asarning boshqa turdagi asarlardan farqi ishqni o'ziga xos tarzda tuyish va uni ifodalashda namoyon bo'ladi. Shu yo'sinda yaratilgan asarlarda esa mutlaq o'zga holatda ishq baralla kuylanadi. Bilamizki, "So'fiyona adabiyotning tasvir mavzusi tariqat yo'li bilan poklanayotgan va

tinmay komillik sari taraqqiy etayotgan Inson bo'lgani uchun ana shu solik — yo'lovchi Insonning dunyoqarashi, estetikasi, kechinmalar olami muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Tasavvufiy adabiyotning barcha ko'rinishlari, janrlarida ana shu solik Insonning tuyg'ulari, tushunchasi tasvirga olinadi, uni tarbiyalash, unga Haqni va o'zligini tushuntirish, turli rivoyat va hikoyatlar keltirish, o'git-nasihatlar qilish bilan uning ongi va qalbiga yo'l topish bosh masala qilib olinadi"[5].

Har bir adabiy asar matnlari yaxlit bir kompozitsion birlik sanaladi va ana shu birlikning paydo bo'lishi murakkab struktural jarayondir. "Sir emaski, badiiy matn badiiy-estetik butunlik sifatida benihoya murakkab, serqatlam hodisadir. Badiiy matnda ifodalangan asosiy g'oya, fikr, mazmunni tushunish, anglash shunchaki ish emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir" [1]. "Bulbulnoma" dagi obrazlarga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, Gul, Bulbul, Sabo hamda Sulaymon, Lochin, To'ti, Mushuk va Sichqon obrazi uchraydi. Sulaymon asarda kuchli, adolatli podshoh suratida o'z tasvirini topgan:

Eshitgan erdim, ul shohi Sulaymon,
Berib devu pariga farmon.
O'tirmishdi, magar taxt uzra erdi,
Saodat avjida, baxt uzra erdi [6; 423].

Yana bir jumlada aytib o'tganimizdek "Bulbulnoma" ishonchli manbalarga asoslangan holda yozilganini ko'rishimiz mumkin. Farididdin Attor aynan Sulaymon obarazini Qur'oni karim hadislaridan foydalangan holda yaratganiga aslo shubha yo'q, Qur'ondagi Shoh Sulaymonning dev, pari, shamol, bulut, hayvonlar va odamlarga podshoh bo'lgani haqidagi ma'lumotlar F.Attorning "Bulbulnoma"dagi Sulaymon obrazi bilan aynan bir birini takrorlab turibdi. Birinchi baytda Sulaymon ismining qo'llanilishi talmeh san'atini hosil qilgan, ya'ni tarixiy shaxslarning ismini tilga olinishi, ikkinchi baytda esa saodat va baxt so'zi birgalikda tanosib san'atini yuzaga keltirgan.

Endi shu o'rinda Lochin obraziga to'xtaladigan bo'lsak, Lochin o'z shohiga vafodor, kuchli, har bir vazifani mas'uliyat bilan ado etadigan bir qush sifatida tasvirlanadi. Lekin Bulbul tomonidan Lochinga aytilgan quyidagi gaplar Lochinni shohlarning yonida yuradigan ammo ularning kirdikorlaridan bexabar ulamolarga o'xshatilgan:

Makonim shoh qo'li deb faxr etarsen,
Vale shohlar ishidan bexabarsen.
Agarchi qo'lga qo'ndirgay seni ul,
Vale bir kun uloqtirgay seni u [6;435].

Yuqoridagi misralardan biz mansabning o'tkinchi ekanligini Bulbul tilidan Lochinga aytilgan so'zlardan bilishimiz mumkin. Ikkinchi misrada esa qo'ndirmoq va uloqtirmoq so'zlari tazod she'riy san'atini hosil qilish orqali fikrni ta'sirchanroq ifodalagan.

Sabo timsoli esa deyarli barcha “Gul va Bulbul” turkimidagi dostonlarda uchraydi. Dostonning sujetiga mos holda undagi timsollar ham albatta, majozidir. Asarda Gul – Haq timsoli, Sabo – murshid, piri komil ramzi, Bulbul esa tariqat yo‘liga kirishgan solikdir [8;64].

Ular tog‘ boshiga yetganda endi,
Esib bodi Sabo, gulzorga keldi.
Hamon ul sori qo‘l cho‘zdi Bulbul,
Saboning etagidan ushladi ul.

Dedi bodi Saboga: ol payomim,
Borib yoringa yetkazgil salomim [6;427].

Voqealar rivojida Lochin Bulbulni shoh Sulaymonning farmoniga binoan uning huzuriga olib ketayotganida yuqoridagi voqealar ro‘y beradi. Bulbul Lochinning changalida bo‘lgani uchun uning bor umidi Sabodan bo‘ladi va yoriga bo‘lgan salomini Sabodan yuboradi. Oxirgi misrada esa “ol payomim” degan jumla bor. Payom asos, -im 1-shaxs birlik qo‘shimchasi bo‘lib payom so‘zi “Farang-e Mo‘in” lug‘atida “xabar yoki so‘zni boshqasiga yetkazish, salom, vahiy, ilhom” tarzida izoh berilgan [4].

Sabo doim Bulbul va Gulning o‘rtasidagi ularni bir-biriga bog‘lovchi bir timsoldir. Yuqoridagi so‘zning ma‘nosiga to‘xtalishim bejiz emas. Aynan shu kichik detal ham Bulbulning Gulga xabarini yetkazishda Saboning o‘rnini bildirgan.

Endigi navbat Mushuk va Sichqon obrazlariga, bu ikki obraz “Bulbulnoma”ning “Mushuk, Sichqon va may hikoyati”da keladi, voqea esa quyidagicha ifodalangan:

Kezib bir kecha sichqon yolg‘iz o‘zi,
Yig‘ardi o‘ziga ul rizqi ro‘zi.
U xammor uyda don izlar erdi,
Yemakka bir uvoq non izlar erdi.
Kezarkan chun, ko‘zi bir xumga tushdi,
Sharobi nob edi xum ichra, ichdi.
Bir-ikki qatra ichdi, bo‘ldi ul mast,
Dedi: Hay, qayda bor mendek zabardast? [6;431]

Sichqon shu tariqa maydan tatib ko‘rib mast bo‘lib qoladi va mastlik chog‘ida ho‘p va ko‘p lof so‘zlaydi va ovga chiqqan Mushukning qo‘liga tushadi. Mushuk Sichqonni bir-ikki ezg‘alab jonini og‘ritgandan so‘ng Sichqonning mastligi tarqab, Mushukning qo‘lini o‘pa boshlaydi. Sichqon Mushukdan qo‘yib yuborishni do‘st-u yor bo‘lishini so‘raydi, Mushuk esa javoban shunday deydi:

Umiding uz, seni qo‘llovchi qo‘l yo‘q,
O‘larsen, senga bundan o‘zga yo‘l yo‘q.
Nechun qo‘ygum seni sog‘u salomat,
Yo‘lingni poyladim men necha muddat [6;432]

Shu tariqa sichqoning umriga yakun yasaladi. Bu hikoyatda ko'rishimiz mumkinki, Sichqonning mastligidagi yolg'onlari uning dushman changaliga tushishiga va hayotiga zomin bo'lishiga sabab bo'ldi.

Asar axloqiy-didaktik xarakterda bo'lib, undagi har bir obraz ijodkorning ma'lum qarashlarini ifoda etgan. Jumladan, asosiy obrazlardan biri Bulbul hisoblanib, u orqali ijodkor qalbini poklamoqchi bo'lgan solik obrazini yaratishni niyat qiladi. "Solik lug'atda "harakat qiluvchi" ma'nosini anglatadi. Istilohda Alloh roziligiga erishish uchun nafsini yomon xulqlardan poklashga va maqtalgan xulqlar bilan xulqlanishga harakat qiluvchi mo'min, solik deyiladi" [1].

Xulosa qilib aytganda, Farididdin Attorning "Bulbulnoma" asari tasavvuf adabiyotining sara asarlaridan biridir. U insonni ichki poklanishga, sabr, sadoqat va ilohiy ishq sari chorlashga undovchi majoziy asardir. Bulbulning g'ami-hijroni bu inson qalbining Allohga bo'lgan sog'inchi, unga yetishish orzusi timsolidir. Attor asari orqali o'quvchiga shunday xabar beradi: "Haqiqiy go'zallik tashqarida emas, balki qalb pokligida yashaydi" [10]. "Bulbulnoma"ning badiiy qudrati va falsafiy mazmuni bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan hamda insoniyatni ruhiy kamolot sari yetaklaydigan asar sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бадий адабиёт ва тасаввуф тимсоллари (масъул мухаррир А. Қурбонбеков, ф.ф.д., проф.). – Тошкент, 2010. – Б. 107.
2. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: Фан нашриёти, 1974.
3. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021.
4. Mo'in Mohammad. Farhang-e Farasi-ye Mo'in. – Tehran: Amir Kabir, 1993.
5. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр, Ўзбекистон, 2009. – Б. 140.
6. Нишопурий Шайх Фаридуддин Аттот. Bulbulnoma. – Toshkent: Tamaddun, 2012. – Б. 553.
7. Rahmonova Sh. Falsafiy-irfoniy dostonlardan vazn va mazmun munosabati. – Uzbekistan: Language and Culture, 2022.
8. Shodiyeva S. O'zbek epik poeziyasi taraqqiyotida Salohiddin Salohiy dostonlarini o'rni. Filol. fan. fal. d-ri. – Qarshi, 2025. – Б. 165.
9. Shodiyeva S. Salohiddin Salohiy asarlari qo'lyozma nusxalarining ilmiy tavsifi // O'zbek matnshunosligining dolzarb masalalari respublika konferensiyasi. – Qarshi, 2025. – Б. 566.
10. Шайх Зулфиқор Аҳмад Нақишбандий. Тасаввуф вас-сулк (Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулқодир Абдур Раҳим). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2023.